

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra)

5



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

6

22
aksiyadorlik
jamiyati

113
unitar
korxona

336
boshqalar

5 400
oilaviy korxona

7 248
xususiy korxona

11 381
mas'uliyati cheklangan
jamiyat

24 500

tijorat korxonalarini

Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- dekabr oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2021- yil yanvar- dekabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2021- yil yanvar- dekabr oylarida 5 207 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 889 ta, xususiy korxonalar – 903 ta, oilaviy korxonalar – 1 191 ta, muassasalar – 120 ta va boshqalar – 104 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 5 824 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 590 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 400 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 569 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 191 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 744 taga yoki 3,3 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 11 918 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 236 taga yoki 23,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 381 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 045 taga yoki 21,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yil yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 889 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 646 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 583 tani tashkil etib, ulardan 566 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 141 taga yoki 132,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar- dekabr oylarida viloyatimizda 176 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- dekabr oylarida, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

11




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	4 379	5 537	7 502	9 336	11 381
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	381	599	813	1 279	1 638
Sanoat	707	900	1 204	1 477	1 803
Qurilish	718	947	1 335	1 533	1 785
Savdo	1 354	1 609	2 297	2 908	3 648
Tashish va saqlash	476	493	571	633	648
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	171	217	298	353	430
Axborot va aloqa	75	79	100	113	144
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	38	64	91	118	158
Boshqa turlar	459	629	793	922	1 127

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	57	172	350	425	566
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7	52	88	107	126
Sanoat	32	46	96	118	136
Qurilish	1	10	19	22	35
Savdo	6	37	98	130	208
Tashish va saqlash	4	8	7	7	10
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	5	18	16	21
Axborot va aloqa	1	1	2	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	4	5	7
Boshqa turlar	4	11	18	18	21

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	566	146	420
Termiz sh.	323	36	287
tumanlar:			
Oltinsoy	7	6	1
Angor	20	5	15
Bandixon	1	-	1
Boysun	8	6	2
Muzrabot	15	6	9
Denov	19	10	9
Jarqo'rg'on	15	8	7
Qumqo'rg'on	11	5	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	19	10	9
Termiz	49	19	30
Uzun	39	19	20
Sherobod	15	8	7
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (11,9 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (7,0 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Termiz (6,6 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,3 %), Qiziriq (4,8 %), Boysun (4,7 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (1,9 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (21,1 %), Denov (11,3 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Sherobod (7,5 %), Sho'rchi (7,2 %), Qumqo'rg'on (6,4 %), Termiz (5,2 %), Sariosiyo (5,1 %), Uzun (5,1 %), Angor (4,7 %), Boysun (4,4 %), Muzrabot (4,3 %), Qiziriq (4,1 %), Bandixon (3,2 %) va Oltinsoy (2,5 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,2 %), Denov (9,5 %), Termiz (9,1 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Sherobod (6,3 %), Sho'rchi (5,4 %), Boysun (5,3 %), Qumqo'rg'on (5,2 %), Qiziriq (4,7 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,4 %), Oltinsoy (2,5 %) va Bandixon (2,1 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar- dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Denov (13,0 %), Termiz sh. (11,2 %), Uzun (9,7 %), Jarqo'rg'on (9,0 %), Sariosiyo (8,8 %), Sherobod (7,6 %), Qumqo'rg'on (5,9 %), Boysun (4,0 %), Sho'rchi (5,3 %), Angor (4,9 %), Muzrabot (4,7 %), Qiziriq (4,0 %), Bandixon (3,9 %), Oltinsoy (3,4 %) va Termiz (3,2 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the website [www.stat.uz](http://stat.uz). The header features the national emblem of Uzbekistan and the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the header, there are links for "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR". The "INTERAKTIV XIZMATLAR" section is currently active, showing a dropdown menu with options like "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". A sub-form on the right allows users to enter a "Rasmidagi kodni kiriting" (enter your code) and click "Qidiruv" (Search). The sidebar on the left lists various statistical services, and the right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" such as "Ahollini ro'yxatga olish-2022" and "Harakatlar strategiyasi". The footer contains a link to the "Statistik registrlarni yuritish bo'limi" and their phone number.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**